**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTABAYEV AKBARXO‘JA MAMAJONOVICH

STATISTIK MEXANIKANING BA’ZI KLASSIK MODELLARI UCHUN p-ADIK DAVRIY GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01 – Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023 yil

UDK: 517.98 – 519.21

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTABAYEV AKBARXO‘JA MAMAJONOVICH

STATISTIK MEXANIKANING BA’ZI KLASSIK MODELLARI UCHUN p-ADIK DAVRIY GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Namangan – 2023 yil

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida № B2021.4.PhD/FM556 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Raxmatullayev Muzaffar Muxammadjanovich**
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: **Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Botirov G`olibjon Isroilovich
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil " 21 " noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (170 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil " 27 " oktabr kuni tarqatildi.
(2023 yil " 27 " oktabrdagi 2 -raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan fizik, biologik sistemalarning termodinamik xossalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy masalalar ko'pincha statistik mexanikaning Arximed va noarximed modellarini tadqiq qilishga keltiriladi. p-adik Gibbs o'lchovlari statistik mexanikaning noarximed modellari uchun faza almashishlari nazariyasining asosiy ob'yekti hisoblanadi. Kimyo, fizika, xizmat ko'rsatish nazariyasi, materialshunoslik, biologiya kabi fan va texnikaning turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda Gibbs o'lchovlari to'plamini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik mexanikaning noarximed modellariga mos barcha p-adik Gibbs o'lchovlari to'plamini to'liq tavsiflash murakkabligidan berilgan modelga mos yetarlicha ko'p Gibbs o'lchovlarini qurish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda panjarali sistema, xususan daraxt strukturasiga ega sanoqli graflarda berilgan Gamiltonian uchun p-adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligini aniqlash, barcha p-adik Gibbs o'lchovlari to'plamini tavsiflash dolzarb masalalardan biridir. Statistik fizikada faza almashishlar nazariyasining muhim masalalaridan biri barcha p-adik Gibbs o'lchovlari to'plamida kamida ikkita p-adik davriy Gibbs o'lchovlari mavjudligini aniqlash masalasidir. Shu bois berilgan Gamiltonian uchun barcha davriy va translyatsion-invariant p-adik Gibbs o'lchovlari to'plamini tavsiflash, bunday o'lchovlarni chegaralanganlikka tekshirish hamda umumlashgan p-adik Gibbs o'lchovlari uchun faza almashish mavjudligini aniqlash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda taraqqiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo'lgan fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo'lgan sohalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, oxirgi yillarda Keli daraxtida aniqlangan statistik mexanikaning klassik modellari uchun haqiqiy va p-adik sonlar maydonida translyatsion-invariant, davriy va konstruktiv usulda qurilgan ba'zi davriy bo'lmagan Gibbs o'lchovlarining xossalarini tadqiq qilish borasida salmoqli natijalarga erishildi. "Matematik fizika, noarximed analiz, noarximed o'lchovlar va dinamik sistemalar nazariyalari" fanlarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta'minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida statistik mexanikaning klassik modellari uchun faza almashishlar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 292-sonli qarori.

yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Doimiy harorat saqlanadigan va atrof-muhit bilan issiqlik muvozanatida bo‘lgan sistemalarning holatini tavsiflovchi Gibbs taqsimoti tushunchasi amerikalik olim J.U. Gibbs tomonidan kiritilgan. Haqiqiy qiymatli limit Gibbs o‘lchovlarining umumiy xarakteristikasi R.L. Dobrushin, O. Lenford va D. Ryuellarning ishlarida berilgan. Haqiqiy qiymatli Gibbs o‘lchovlarining zamonaviy nazariyasi R. Bekster, X.O. Georgi, V.A. Malishov, R.A. Minlos, K. Preston, D. Ryuel, Ya.G. Sinay, G. Gallavotti, F. Bonetto, J. Jentile, Jin Zin-Jastin, N.N. G‘anixodjayev O‘.A. Roziqov va F.M. Muxamedovlarning ishlarida yoritib berilgan. R.L. Dobrushin tomonidan haqiqiy qiymatli limit Gibbs o‘lchovining mavjudligi haqidagi teorema isbotlangan. Statistik mexanikaning klassik modellari uchun Gibbs o‘lchovlari R.L. Dobrushin, G.R. Braytvell, P. Uinkler, Yu.M. Suxov, J. Martin, N.N. G‘anixodjayev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muxammedov, D. Gandolfo, M.M. Raxmatullayev, R.M. Xakimov, G‘.I. Botirov, O.N. Hakimov, E. Normatov, Sh. Shoyusupov, F. Haydarov, M. Rasulova va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

N.N. G‘anixodjayev, F.M. Muxamedov va O‘.A. Roziqovlarning ishida $\mathbb{Z}$ panjarada Izing modeli uchun p-adik Gibbs taqsimotining yagonaligi isbotlangan. Izing-Vannimenus modeli uchun p-adik Gibbs o‘lchovining yagona emasligi N.N. G‘anixodjayev, H. Akinlarning ishida ko‘rsatilgan. Vannimenus model uchun O.N. Hakimovning ishlarida ikkinchi tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant va davriy p-adik kvazi Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan. Ushbu ishlar F.M. Muxamedov, M.K. Saburov va O.N. Hakimovning ishlarida Izing-Vannimenus modeli uchun davom ettirilgan.

Izing modeli uchun yagona p-adik Gibbs o‘lchovi mavjud ekanligi M. Xamrayev, F.M. Muxamedovlarning ishlarida isbotlangan. Translyatsion-invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari F.M. Muxamedov va O.N. Hakimovning ishlarida o‘rganilgan. Translyatsion-invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlarining chegaralanganlik mezoni topilgan va bu o‘lchovlar uchun kuchli faza alamashish mavjud emasligi isbotlangan. p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari uchun xaotiklik masalalari F.M. Muxamedov, O.N. Hakimov, H. Akin, M. Dogan ishlarida o‘rganilgan.

Haqiqiy sonlar maydonida Izing modeli uchun konstruksiya usulidan foydalanib, davriy bo‘lmagan sanoqsiz sondagi chetki Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi P. Blexer va N.N. G‘anixodjayev ishlarida isbotlangan. H. Akin, O‘.A. Roziqov va S. Temir tomonlaridan ART Gibbs o‘lchovlari deb ataluvchi o‘lchovlar o‘rganilgan. O‘.A. Roziqov va M.M. Raxmatullayevlar tomonidan (k_0)-translyatsion-invariant va (k_0)-davriy Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan.

Yuqoridagi kabi ko‘plab ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, Keli daraxtida hozirgacha birorta ham model uchun limit Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tasnifi olinmaganligini ta’kidlash joiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Fundamental tadqiqotlar” tarmog‘i doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami chekli bo‘lgan Izing va Potts modellari uchun limit p-adik translyatsion-invariant, davriy va davriy bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash hamda bunday o‘lchovlarning chegaralanganligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeliga mos translyatsion-invariant *p*-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘lishi uchun yetarli shartlarni aniqlash;

ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeli uchun G_2-davriy *p*-adik kvazi Gibbs o‘lchovlarining mavjudlik shartlarini topish hamda faza almashishlari mavjudligini tekshirish;

ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeliga mos funksional tenglamaning translyatsion-invariant yechimlaridan foydalanib yuqori tartibli Keli daraxtida ART *p*-adik kvazi Gibbs o‘lchovlarini qurish hamda bu o‘lchovlarni chegaralanganlikka tekshirish;

ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeliga mos translyatsion-invariant va $G_k^{(2)}$-davriy *p*-adik Gibbs o‘lchovlari yordamida yuqori tartibli Keli daraxtida davriy bo‘lmagan ART, (k_0)-translyatsion-invariant va (k_0)-davriy *p*-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlarini qurish.

Tadqiqot ob’ekti: Keli daraxtida p-adik Izing va Potts modellari.

Tadqiqot predmeti. Gruppalar va graflar nazariyasi, Gibbs o‘lchovlari nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi, nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi, p-adik analiz, Markov jarayonlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida p-adik analiz, sonlar nazariyasi, funksional analiz, kombinatorika, gruppalar nazariyasi, o‘lchovlar nazariyasi, chiziqli algebra va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeliga mos translyatsion-invariant *p*-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan;

ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeli uchun davriy *p*-adik kvazi Gibbs o‘lchovlarining mavjudlik shartlari topilgan hamda faza almashishlari mavjudligi isbotlangan;

kichik tartibli Keli daraxtida berilgan uch holatli Potts modeliga mos funksional tenglamaning topilgan translyatsion-invariant yechimlaridan foydalanib yuqori tartibli Keli daraxtida *p*-adik kvazi Gibbs o‘lchovlarini qurish konstruksiyasi berilgan hamda bunday o‘lchovlarning chegaralanganlik shartlari topilgan;

kichik tartibli Keli daraxtida Izing modeliga mos translyatsion-invariant va ikki davriy *p*-adik Gibbs o‘lchovlari yordamida yuqori tartibli Keli daraxtida davriy bo‘lmagan turli *p*-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari qurilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurti magistratura talabalari va oliy ta’limdan keyingi ta’limda o‘quv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin. Shuningdek, davriy *p*-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari to‘plamida turli faza almashishlari mavjudligini ta’minlaydigan parametr qiymatlarining aniq ifodasidan xizmat ko‘rsatish nazariyasi masalalarini yechishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. p-Adik analiz, noarximed funksional analiz, noarximed Markov tasodifiy maydonlar nazariyasi, p-adik ehtimollar nazariyasi, sonlar nazariyasi, diskret vaqtli dinamik sistemalar, Gibbs va noarximed o‘lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati statistik mexanikaning turli p-adik modellari uchun Gibbs o‘lchovlari nazariyasining rivojlantirishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati noarximed fizik sistemalar holatining o‘zgarishi tadqiq qilinganligi hamda kombinatorika va telekommunikatsiyaning ba’zi masalalarini yechish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Statistik mexanikaning ba’zi klassik modellari uchun p-adik davriy Gibbs o‘lchovlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Keli daraxtida p-adik Izing modeli uchun olingan natijalar G0003247 raqamli “Panjara modellarining qayta normalizatsiya qilingan gruppalari bilan bog‘liq xaotik va aralash p-adik dinamik sistemalari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida Keli daraxtlarida Izing modeliga mos p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2023 yil 4 sentabrdagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ba’zi *p*-adik ratsional funksiyalarning dinamikasini va fizik sistemalarning termodinamik xossalarini tavsiflash imkonini bergan.

Keli daraxtida statistik mexanikaning ba’zi klassik modellari uchun translyatsion-invariant va davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari mavjudligini isbotlash usullaridan YOT-FTEX-2018-154 raqamli “Z^d panjaralarda va Γ^k Keli daraxtlarida gamiltonianlar spektrlari va Gibbs o‘lchovlari” mavzusidagi grant loyihasida statistik mexanikaning spin qiymatlari to‘plami kontinuum bo‘lgan ayrim klassik modellari uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 9-sentabrdagi 04/11-5431 sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning qo‘llanilishi statistik mexanikaning spin qiymatlari to‘plami kontinuum bo‘lgan ba’zi modellari uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o’lchovlari to‘plamini kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 5 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, o‘nta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 111 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**p-Adik analiz va p-adik o‘lchovlar**” deb nomlanuvchi birinchi bobida asosiy tushunchalar, ta’riflar, shuningdek dissertatsiya ishida olingan natijalarni yoritishda foydalaniladigan muhim teoremalar keltirilgan va ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeli uchun G_2-davriy p-adik kvazi Gibbs o‘lchovlari tadqiq qilingan, bu o‘lchovlarni mavjudlik shartlarini aniqlangan, ularni chegaralanganlikka tekshirilgan va faza almashishining mavjudlik shartlari topilgan.

p-biror fiksirlangan tub son bo‘lsin. Ixtiyoriy $x \neq 0$ ratsional sonni, $x = p^r \frac{m}{n}$ ko‘rinishda tasvirlash mumkin. Bunda, $m \in \mathbb{Z}$, $n \in \mathbb{N}$, m va n lar p tub songa bo‘linmaydi, ya’ni $(m, p) = (n, p) = 1$. Ushbu x ratsional sonni p-adik normasi quyidagicha aniqlanadi

$$|x|_p = \begin{cases} p^{-r}, & x \neq 0, \\ 0, & x = 0. \end{cases}$$

Ushbu norma $|x+y|_p \leq \max\{|x|_p, |y|_p\}$ kuchli uchburchak tengsizligini qanoatlantirgani uchun noarximed normasi bo‘ladi. $\mathbb{Q}$ ratsional sonlar maydonining p-adik norma bo‘yicha to‘ldirmasiga p-adik sonlar maydoni deyiladi va bu maydon $\mathbb{Q}_p$ kabi belgilanadi.

Dissertatsiya ishida ko‘p foydalanilgan quyidagi muhim to‘plamlari keltiramiz.

$a \in \mathbb{Q}_p$ va $r > 0$ sonlar berilgan bo‘lsin.

a markazli r radiusli ochiq shar

$$B(a,r) = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x-a|_p < r\},$$

a markazli r radiusli yopiq shar

$$\overline{B(a,r)} = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x-a|_p \leq r\},$$

a markazli r radiusli sfera

$$S(a,r) = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x-a|_p = r\},$$

p-adik butun sonlar

$$\mathbb{Z}_p = \overline{B(0,1)},$$

p-adik birlar

$$\mathbb{Z}_p^* = S(0,1)$$

kabi aniqlanadi.

p-adik Gibbs o‘lchovlar nazariyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi funksiyalarni keltiramiz. *p-adik logarifm* yaqinlashish sohasi $B(1,1)$ bo‘lgan quyidagi qator orqali aniqlanadi

$$\log_p(x) = \log_p(1+(x-1)) = \sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n+1} \frac{(x-1)^n}{n}.$$

p-adik eksponenta yaqinlashish sohasi $B\left(1, p^{-1/(p-1)}\right)$ bo‘lgan quyidagi qator bilan beriladi

$$\exp_p(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{n!}.$$

Quyidagi to‘plamni aniqlaymiz

$$\mathcal{E}_p = \left\{ x \in \mathbb{Q}_p : |x-1|_p < p^{-\frac{1}{p-1}} \right\}.$$

Shuni ta’kidlash joizki, $\mathcal{E}_p$ to‘plam p-adik eksponentaning qiymatlari to‘plami bo‘lib, ko‘paytirish amaliga nisbatan kommutativ gruppadir.

Faraz qilaylik $(X, \mathfrak{B})$-o‘lchovli fazo, $\mathfrak{B}$ to‘plamlar oilasi X ning qism to‘plamlaridan tuzilgan algebra va $\mathbb{K}$-noarximed maydon bo‘lsin. Agar

$\mu:\mathfrak{B}\to\mathbb{K}$ to‘plam funksiyasi chekli additiv bo‘lsa, ya’ni har qanday chekli yig‘indi uchun $A=\bigcup_{k=1}^{n}A_k,\ A_k\in\mathfrak{B},\ k=\overline{1,n},\ A_i\cap A_j=\varnothing,\ i\neq j$ uchun $\mu(A)=\sum_{k=1}^{n}\mu(A_k)$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda bu funksiya *noarximed taqsimoti* deyiladi.

Agar μ noarximed taqsimoti uchun $\mu(X)=1$ shart o‘rinli bo‘lsa, bunday taqsimot *noarximed ehtimollik taqsimoti* deyiladi. Chegaralangan ya’ni, $\sup\left\{|\,\mu(A)|_p : A\in\mathfrak{B}\right\}<\infty$ shartni qanoatlantiruvchi noarximed taqsimoti μ ga *noarximed o‘lchovi* deyiladi. Agar μ noarximed o‘lchovi uchun $\mu(X)=1$ shart o‘rinli bo‘lsa, bunday o‘lchov *noarximed ehtimollik o‘lchovi* deyiladi.

Ma’lumki, $\Gamma^k=(V,L)$ k-tartibli Keli daraxti har bir uchidan $k+1$ ta qirra chiqadigan siklga ega bo‘lmagan cheksiz grafdir. Bu yerda V daraxtning uchlari to‘plami, L uning qirralari to‘plami. Agar $x,y\in V$ uchlar uchun ularni tutashtiruvchi $l\in L$ qirra mavjud bo‘lsa, u holda x va y uchlar yaqin qo‘shnilar deyiladi va $l=\langle x,y\rangle$ kabi belgilanadi. Keli daraxtida $x,\,y\in V$ uchlar orasidagi $d(x,y)$ masofa ushbu

$$d(x,y)=\min\{d\mid \exists x=x_0,x_1,\ldots,x_{d-1},x_d=y\in V,\quad \langle x_0,x_1\rangle,\ldots,\langle x_{d-1},x_d\rangle\}$$

formula orqali aniqlanadi.

Fiksirlangan $x^0\in V$ uchun quyidagicha belgilashlarni kiritamiz:

$$W_n=\left\{x\in V\mid d(x,x^0)=n\right\},\ \ V_n=\bigcup_{j=0}^{n}W_j,\ \ L_n=\left\{l=\langle x,y\rangle\in L\mid x,y\in V_n\right\}.$$

$x\in W_n$ uchun $S(x)=\{y\in W_{n+1}:\ d(x,y)=1\}$ to‘plam x uchning to‘g‘ri avlodlari to‘plami deyiladi.

G_k-barpo etuvchilari mos ravishda $a_1,a_2,...,a_{k+1}$ bo‘lgan $k+1$ ta ikkinchi tartibli siklik gruppalarning ozod ko‘paytmasidan iborat bo‘lgan gruppa bo‘lsin.

Quyidagi tasdiq N.N. G‘anixodjayevning ishlaridan ma’lum.

1-tasdiq. k-tartibli Keli daraxtining V uchlar to‘plami bilan G_k gruppa o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslik mavjud.

$\Gamma^k=(V,L)$ Keli daraxti va $\Phi\subset\mathbb{Z}$ chekli to‘plam berilgan bo‘lsin. $\Lambda\subset V$ to‘plamda aniqlangan $x\in\Lambda\to\sigma_\Lambda(x)\in\Phi$ funksiya konfiguratsiya deyiladi. Λ to‘plamda aniqlangan barcha konfiguratsiyalar to‘plami $\Omega_\Lambda=\Phi^\Lambda$ kabi belgilanadi. Xususan, $\Omega=\Omega_V$.

Berilgan $\sigma\in\Omega_\Lambda$ va $\varphi\in\Omega_{V\setminus\Lambda}$ konfiguratsiyalar uchun quyidagini aniqlaymiz

$$(\sigma\vee\varphi)(x)=\begin{cases}\sigma(x), & \text{agar } x\in\Lambda,\\ \varphi(x), & \text{agar } x\in V\setminus\Lambda.\end{cases}$$

$\sigma\in\Omega$ konfiguratsiyaning energiyasi ushbu

$$H(\sigma)=\sum_{\substack{\Lambda\subset V:\\ \mathrm{diam}(\Lambda)\le r}} I(\sigma_\Lambda),$$

gamiltonian orqali beriladi, bu yerda $r\in\mathbb{N},\ \mathrm{diam}(\Lambda)=\max\limits_{x,y\in\Lambda}d(x,y)$ va $I:\Omega_\Lambda\to\mathbb{Q}_p$ berilgan potensial.

Ω ning silindrik qism to‘plamlaridan hosil qilingan algebra $\mathfrak{B}$ bo‘lsin.

1-ta’rif. $(\Omega,\mathfrak{B})$ da aniqlangan p-adik ehtimollik taqsimoti μ berilgan bo‘lsin. Faraz qilaylik ixtiyoriy $\Lambda\subset V$ uchun

$$\mu(\sigma\,|\,\varphi)=\frac{\exp_p\left\{H\left(\sigma\vee\varphi\right)\right\}}{Z_{\Lambda,\varphi}},\ \forall\sigma\in\Omega_\Lambda,\ \forall\varphi\in\Omega_{V\setminus\Lambda},$$

o‘rinli bo‘lsin. Bu yerda $Z_{\Lambda,\varphi}$ normallovchi o‘zgarmas bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi

$$Z_{\Lambda,\varphi}=\sum_{\omega\in\Omega_\Lambda}\exp_p\left\{H\left(\omega\vee\varphi\right)\right\}.$$

Bunday taqsimotga p-*adik Gibbs taqsimot* deyiladi.

1.4 paragrafda ikkinchi tartibli yarim Keli daraxtida p-adik Potts modeli uchun G_2-davriy kvazi Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan.

$\mathbb{Q}_p$ p-adik sonlar maydoni va $\Phi=\{1,2,...,q\}$ bo‘lsin. p-adik Potts modelining formal gamiltoniani

$$H(\sigma)=J\sum_{\langle x,y\rangle\in L}\delta_{\sigma(x)\sigma(y)},$$

orqali aniqlanadi. Bunda $J\in B(0,p^{-1/(p-1)})$ o‘zgarmas, δ_{ij} Kroneker simvoli.

Faraz qilaylik $\mathbf{h}:V\setminus\{x^0\}\to\mathbb{Q}_p^q$ akslantirish berilgan ya’ni, $\mathbf{h}_x=(h_{1,x},h_{2,x},...,h_{q,x})$, bo‘lsin, bunda $h_{i,x}\in\mathbb{Q}_p$ $(i\in\Phi)$ va $x\in V\setminus\{x^0\}$. Har bir $n\in\mathbb{N}$ uchun Ω_{V_n} da p-adik ehtimollik taqsimoti $\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}$ quyidagicha aniqlanadi

$$\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}(\sigma)=\frac{1}{Z_n^{(\mathbf{h})}}\exp_p\{H_n(\sigma)\}\prod_{x\in W_n}h_{\sigma(x),x},\qquad(1)$$

bu yerda $\sigma\in\Omega_{V_n}$, $Z_n^{(\mathbf{h})}$ normallovchi o‘zgarmas bo‘lib, u

$$Z_n^{(\mathbf{h})}=\sum_{\sigma\in\Omega_{V_n}}\exp_p\{H_n(\sigma)\}\prod_{x\in W_n}h_{\sigma(x),x},$$

formula bilan aniqlanadi.

p-adik ehtimollik taqsimoti ixtiyoriy $n\in\mathbb{N}$ va $\sigma_{n-1}\in\Omega_{V_{n-1}}$ uchun

$$\sum_{\omega_n\in\Omega_{W_n}}\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}(\sigma_{n-1}\vee\omega_n)=\mu_{\mathbf{h}}^{(n-1)}(\sigma_{n-1}),\qquad(2)$$

shartni bajarsa, ushbu p-adik ehtimollik taqsimoti muvofiqlik shartini qanoatlantiradi deyiladi. Agar (1) p-adik ehtimollik taqsimoti (2) muvofiqlik shartini qanoatlantirsa, N.N. G‘anixodjayev, F.M. Muxamedov, O‘.A. Roziqovlarning ishida isbotlangan Kolmogorov teoremasining noarximed muqobiliga ko‘ra, Ω da yagona limit p-adik o‘lchov mavjud bo‘lib, bu o‘lchov ixtiyoriy $n\in\mathbb{N}$ va $\sigma_n\in\Omega_{V_n}$ uchun

$$\mu(\sigma\in\Omega:\sigma|_{V_n}\equiv\sigma_n)=\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}(\sigma_n),$$

shartni qanoatlantiradi. Bu o‘lchovni p-adik kvazi Gibbs o‘lchovi deyiladi.

F.M. Muxamedov ishlarida p-adik Gibbs o‘lchovlari uchun faza almashish tushunchasi keltirilgan. Agar berilgan model uchun kamida ikkita p-adik Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘lib, ulardan biri chegaralangan, boshqa biri esa chegaralanmagan bo‘lsa, u holda berilgan model uchun faza almashish mavjud deyiladi.

Ma’lumki, Keli daraxtida Potts modeli uchun (1) ko‘rinishda aniqlangan $\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}$ $(n=1,2,\ldots)$ ehtimollik taqsimotlari ketma-ketligi (2) muvofiqlik shartini qanotlantirish uchun ixtiyoriy $x\in V\setminus\{x^0\}$ da $\mathbf{h}=\{\mathbf{h}_{\mathbf{x}}, x\in V\}$ miqdorlar to‘plami ushbu

$$\mathbf{h}_x=\prod_{y\in S(x)}F(\mathbf{h}_y,\theta), \tag{3}$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda $\theta=\exp_p\{J\}$,
$\hat{h}=\left(\hat{h}_1,\hat{h}_2,...,\hat{h}_{q-1}\right)\in\mathbb{Q}_p^{q-1}$ vektor $\mathbf{h}=(h_1,h_1,...,h_q)\in\mathbb{Q}_p^q$ vektor orqali quyidagicha hosil qilinadi

$$\hat{h}_i=\frac{h_i}{h_q}, i=1,2,...,q-1,$$

$F:\mathbb{Q}_p^{q-1}\times\mathbb{Q}_p\to\mathbb{Q}_p^{q-1}$ akslantirish esa $F(\mathbf{x};\theta)=\left(F_1(\mathbf{x};\theta),...,F_{q-1}(\mathbf{x};\theta)\right)$ ko‘rinishda aniqlanadi, bunda

$$F_i(\mathbf{x};\theta)=\frac{(\theta-1)x_i+\sum_{j=1}^{q-1}x_j+1}{\sum_{j=1}^{q-1}x_j+\theta}, \mathbf{x}=(x_1,x_2,...,x_{q-1})\in\mathbb{Q}_p^{q-1},\ i=1,2,...,q-1.$$

Γ_+^k yarim Keli daraxtining ildizi x^0 bo‘lsin. Ma’lumki, yarim Keli daraxtining koordinatali tuzilishi surish binar amali bilan $(G^k,\circ)$ yarim gruppa hosil qiladi. $G\subset G^k$ to‘plam G^k ning qism yarim gruppa bo‘lsin. $h:G^k\to Y$ akslantirish G^k da aniqlangan Y to‘plamdan qiymat oluvchi funksiya bo‘lsin. Agar h akslantirish $\forall g\in G$ va $\forall x\in G^k$ uchun $h(\tau_g(x))=h(x)$ shartni qanoatlantirsa, bu akslantirish G-*davriy* deyiladi, bunda $\tau_g(x)=g\circ x$. Ixtiyoriy G^k-davriy akslantirish *translyatsion-invariant* deyiladi.

$m\geq 2$ bo‘lsin. Ma’lumki, quyidagi to‘plam

$$G_m=\{x\in G^k: d(x,x^0)\equiv 0(\mathrm{mod}\, m)\}$$

to‘plam G^k ning qism yarim gruppasi bo‘ladi.

Quyidagi

$$I_m=\left\{\mathbf{h}:\mathbf{h}=(\underbrace{1,...,1,h}_{m},1,...,1)\right\}, m=1,...,q-1$$

to‘plam (3) uchun invariant to‘plam bo‘lishini oson tekshirish mumkin. Quyidagi teoremalarda o‘lchovlar deganda ushbu I_m invariant to‘plamdagi $\mathbf{h}$ vektorlarga mos kelgan o‘lchovlarni nazarda tutamiz.

I_m invariant to‘plamda $h:=h_0=1$ ga mos kelgan translyatsion-invariant p-adik kvazi Gibbs o‘lchovini μ_{h_0} orqali belgilaymiz.

1-teorema. Ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeli uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli

1) Agar $p=2$ yoki $p\equiv 5(\mathrm{mod}\,8)$ yoki $p\equiv 7(\mathrm{mod}\,8)$ bo‘lsa, u holda yagona chegaralangan p-adik G_2-davriy kvazi Gibbs o‘lchovi μ_{h_0} mavjud;
2) Agar $p\equiv 1(\mathrm{mod}\,8)$ yoki $p\equiv 3(\mathrm{mod}\,8)$ bo‘lsa, u holda beshta p-adik G_2-davriy kvazi Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi translyatsion-invariant bo‘lmagan p-adik G_2-davriy kvazi Gibbs o‘lchovlaridir. Qolaversa,

2.1) $p=3$ bo‘lsa, ularning barchasi chegaralanmagan,

2.2) $p\neq 3$ bo‘lsa, faqat μ_{h_0} o‘lchovgina chegaralangan.

2-teorema. Agar $p\equiv 1(\mathrm{mod}\,8)$ yoki $p\equiv 3(\mathrm{mod}\,8)$, $p\neq 3$ bo‘lsa, u holda ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli p-adik Potts modeli uchun faza almashish mavjud.

1-izoh. F.M. Muxamedov, O.N. Hakimov ishlarida Γ_+^k yarim Keli daraxtida p-adik Potts modeli uchun ixtiyoriy $m\in\mathbb{N}$ uchun G_m-davriy kvazi Gibbs o‘lchovlari mavjudligi isbotlangan. Ammo o‘lchovlarini oshkor ko‘rinishini topilmagan. Biz 2-tartibli yarim Keli daraxtida G_2-davriy p-adik kvazi Gibbs o‘lchovlarini oshkor ko‘rinishini topdik. Ushbu ko‘rinish o‘lchovlari chegaralanganlikka tekshirishni osonlashtiradi.

2-bob p-adik Izing modeliga bag‘ishlangan bo‘lib, 2.1 paragrafda asosiy tushunchalar, ma’lum natijalar keltirilgan. 2.2 va 2.3 paragraflarda 3-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun mos ravishda translyatsion-invariant va $G_k^{(2)}$-davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari o‘rganilgan.

G_k^* gruppa G_k gruppaning normal qism gruppasi bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar $\forall x\in G_k,\ y\in G_k^*$ uchun $h_{yx}=h_x$ bo‘lsa, u holda $h=\{h_x, x\in G_k\}$ miqdorlar to‘plami G_k^*-davriy deyiladi.

G_k-davriy miqdorlar to‘plami translyatsion-invariant deyiladi.

G_k^*-davriy (translyatsion-invariant) $h=\{h_x, x\in G_k\}$ miqdorlar to‘plamiga mos kelgan Gibbs o‘lchovlari G_k^*-davriy (translyatsion-invariant) Gibbs o‘lchovlari deyiladi.

Ma’lumki, barcha juft uzunlikdagi so‘zlardan iborat bo‘lgan $G_k^{(2)}$ to‘plam G_k-gruppaning ikki indeksli normal qism gruppasi bo‘ladi ya’ni,

$$G_k^{(2)}=\left\{x\in G_k: |x|-\text{juft}\right\}$$

to‘plam uchun $G_k/G_k^{(2)}=\left\{G_k^{(2)}, G_k\setminus G_k^{(2)}\right\}$ bo‘ladi.

$\mathbb{Q}_p$ p-adik sonlar maydoni va $\Phi=\{-1,1\}$ bo‘lsin. p-adik Izing modelining formal gamiltoniani

$$H(\sigma)=J\sum_{\langle x,y\rangle\in L}\sigma(x)\sigma(y),$$

orqali aniqlanadi. Bunda $J\in B(0,p^{-1/(p-1)})$ o‘zgarmas parametr.

Faraz qilaylik $h: x\in V\setminus\{x^0\}\to h_x\in\mathbb{Q}_p$ akslantirish berilgan bo‘lsin. Har bir $n\in\mathbb{N}$ uchun Ω_{V_n} da p-adik ehtimollik taqsimoti $\mu_{\mathbf{h}}^{(n)}$ quyidagicha aniqlanadi

$$\mu_h^{(n)}(\sigma)=\frac{1}{Z_n^{(h)}}\exp_p\{H_n(\sigma)\}\prod_{x\in W_n}h_x^{\sigma(x)}, \tag{4}$$

bu yerda $\sigma\in\Omega_{V_n}$, $Z_n^{(h)}$ normallovchi o‘zgarmas.

Agar (4) p-adik ehtimollik taqsimoti (2) muvofiqlik shartini qanoatlantirsa, Kolmogorov teoremasining noarximed muqobiliga ko‘ra Ω da yagona limit p-adik o‘lchov mavjud. Bu o‘lchovni p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovi deyiladi.

Agar $\forall x\in V$ uchun $h_x\in\mathcal{E}_p$ bo‘lsa, bunday $h=\{h_x,\, x\in V\}$ miqdorlarga mos kelgan p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovi p-adik Gibbs o‘lchovi bo‘ladi.

Ma’lumki, Keli daraxtida Izing modeli uchun (4) ko‘rinishda aniqlangan $\mu_h^{(n)}$ $(n=1,2,\dots)$ ehtimollik taqsimotlari ketma-ketligi (2) muvofiqlik shartini qanotlantirish uchun ixtiyoriy $x\in V\setminus\{x^0\}$ da $h=\{h_x, x\in V\}$ miqdorlar to‘plami ushbu

$$h_x^2=\prod_{y\in S(x)}\frac{\theta h_y^2+1}{h_y^2+\theta}, \tag{5}$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda $\theta=\exp_p\{2J\}$.

3-teorema. N uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun translyatsion-invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari soni bo‘lsin. U holda quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

$$N=\begin{cases}1, & \text{agar } p\not\equiv 1 (\text{mod}\, 4) \text{ bo'lsa},\\ 2, & \text{agar } p\equiv 5 (\text{mod}\, 12) \text{ bo'lsa},\\ 4, & \text{agar } p\equiv 1 (\text{mod}\, 12) \text{ bo'lsa}.\end{cases}.$$

Ko‘rish mumkinki, $h:=h_0=1$ (5) funksional tenglamani yechimi bo‘ladi. Biz bu yechimga mos kelgan p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovini μ_{h_0} orqali belgilaymiz.

4-teorema. Uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun translyatsion-invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari haqidagi quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

1) Agar $p=2$ bo‘lsa, yagona translyatsion-invariant chegaralanmagan μ_{h_0} p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovi mavjud.

2) Agar $p\neq 2$ bo‘lsa, translyatsion-invariant o‘lchovlar ichida faqat μ_{h_0} chegaralangan.

2-izoh. O‘.A. Rozikov va O.N. Hakimovning ishlaridan ma’lumki, p-adik Izing modeli uchun har qanday G_k^*-davriy Gibbs o‘lchovi yoki translyatsion-invariant yoki $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovi bo‘ladi.

Uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishimiz uchun 2-izohga ko‘ra $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishimiz yetarli.

5-teorema. M uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun translyatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari soni bo‘lsin. U holda quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

$$M=\begin{cases}6, \text{ agar } p\equiv 1(\mathrm{mod}\,6) \text{ bo'lsa},\\ 2, \text{ agar } p=2, |\theta-1|_2=\frac{1}{4} \text{ bo'lsa},\\ 2, \text{ agar } p=3, \mathrm{ord}_3|\theta-1|_3 \text{ toq son}, |\theta-1|_3\le\frac{1}{27} \text{ va } |\theta-1|_3(\theta-1)\in\mathcal{E}_3 \text{ bo'lsa},\\ 0, \text{ boshqa hollarda}.\end{cases}.$$

6-teorema. Agar $p\equiv 1(\mathrm{mod}\,12)$ yoki $p=3$, $\mathrm{ord}_3|\theta-1|_3$ toq son $|\theta-1|_3\le\frac{1}{27}$, $|\theta-1|_3(\theta-1)\in\mathcal{E}_3$ bo‘lsa, u holda uchinchi tartibli Keli daraxtida p-adik Izing modeli uchun faza almashishi mavjud.

3-bob Keli daraxtida Izing va Potts modellari uchun davriy bo‘lmagan p-adik Gibbs o‘lchovlariga bag‘ishlangan. Biz ushbu bobda davriy bo‘lmagan p-adik Gibbs o‘lchovlarini konstruktiv usulda hosil qilamiz.

O.N. Hakimovning ishlaridan ma’lumki, $p\equiv 1(\mathrm{mod}\,4)$ bo‘lganda ikkinchi tartibli yarim Keli daraxtida Izing modeli uchun (5) funksional tenglamani translyatsion-invariant va G_2-davriy yechimlari quyidagicha bo‘ladi:

$$h_0^{(t)}=1,\ h_{1,2}^{(t)}=\frac{\theta-1\pm\sqrt{(\theta-3)(\theta+1)}}{2},\ h_{1,2}^{(p)}=\frac{1-\theta\pm\sqrt{(\theta-1)^2-4\theta^2}}{2\theta}. \tag{6}$$

$k\ge 3, k_0=2$ bo‘lsin. $x\in V$ uchun $S_{k_0}(x)$ orqali $S(x)$ dagi ixtiyoriy k_0 ta uchni belgilaymiz, qolgan $k-k_0$ ta uchni $S_{k-k_0}(x)$ orqali belgilaymiz. $k-k_0=a+b+c$, bo‘lsin, bunda a va b juft sonlar, c juft yoki toq son.

$h=\{h_x, x\in V\}$ (bunda $h_x\in\left\{1,h_1^{(t)},h_2^{(t)},h_1^{(p)},h_2^{(p)}\right\}$) miqdorlar to‘plamini quyidagi qoidalar orqali aniqlaymiz:

(A_1) x uchda $h_x=h_i^{(t)}$ $(i=1,2)$ bo‘lsa, u holda

$$h_y = \begin{cases} h_i^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2}+2 \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_i^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ 1, & S(x) \text{ ning } c \text{ ta uchlari uchun.} \end{cases}$$

(A_2) x uchda $h_x = h_i^{(p)}$ $(i=1,2)$ bo‘lsa, u holda

$$h_y = \begin{cases} h_i^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_i^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2}+2 \text{ ta uchlari uchun,} \\ 1, & S(x) \text{ ning } c \text{ ta uchlari uchun.} \end{cases}$$

(A_3) x uchda $h_x = 1$ bo‘lsa, u holda

$$h_y = \begin{cases} h_i^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(t)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{a}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_i^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ h_{3-i}^{(p)}, & S(x) \text{ ning } \dfrac{b}{2} \text{ ta uchlari uchun,} \\ 1, & S(x) \text{ ning } c+2 \text{ ta uchlari uchun.} \end{cases}$$

$(i=1,2)$ (1-rasm).



1-rasm: 8-tartibli yarim Keli daraxtida h_x miqdorlarni $a=2, b=2, c=2, i=1,2$ holdagi joylashuvi.

7-teorema. $p \equiv 1 \,(\mathrm{mod}\, 4)$ bo‘lsin. U holda Γ_+^k yarim Keli daraxtida (A_1), (A_2) va (A_3) qoidalar yordamida aniqlangan h miqdorlar to‘plami (5) funksional tenglamani qanoatlantiradi. Qolaversa, agar $a^2+b^2 \neq 0$ bo‘lsa, u holda bu qoidalar yordamida qurilgan h miqdorlarga mos p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari chegaralanmagan bo‘ladi.

3-izoh. 1) Agar $(A_1), (A_2)$ qoidalarda $a=b=0, c\neq 0$ bo‘lsa, u holda h miqdorlarga mos Gibbs o‘lchovlari k-tartibli Keli daraxtida Izing modeli ART p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari bo‘ladi.

2) Agar (A_1) qoidada $b=c=0, a\neq 0$ bo‘lsa, u holda h miqdorlarga mos Gibbs o‘lchovlari k-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun (k_0)-translyatsion-invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari bo‘ladi.

3) Agar (A_2) qoidada $a=b=0, c\neq 0$ bo‘lsa, u holda h miqdorlarga mos Gibbs o‘lchovlari k-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun (k_0)-davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari bo‘ladi;

4) Qolgan barcha hollarda avvalgi ma’lum o‘lchovlardan farqli o‘lchovlar hosil bo‘ladi.

3.3 paragrafda Blexer-G‘anixodjayev konstruksiyasining p-adik muqobili ham qurilgan. Γ_+^k yarim Keli daraxtida biror $\pi = x^0 = x_0 < x_1 < \ldots$ yo‘lni tayinlaylik (Bunda $x<y$ belgi x^0 dan y ga boruvchi yo‘l x orqali o‘tishini anglatadi). Γ_+^k yarim Keli daraxtida π yo‘lga mos (5) tenglamani qanoatlantiruvchi $h^\pi = \{h_x^\pi : x\in V\}$ p-adik sonlar to‘plamini quyidagicha aniqlaymiz.

$x \in W_n$ bo‘lsin.

$$h_x^{\pi} = \begin{cases} \dfrac{1}{h_*}, \text{ agar } x \prec x_n, \ x \in W_n \text{ bo'lsa;} \\ h_*, \text{ agar } x_n \prec x, \ x \in W_n \text{ bo'lsa;} \\ h_{x_n}^{(n)}, \text{agar } x = x_n \text{ bo'lsa.} \end{cases} \quad (7)$$

Bunda $n = 1, 2, ...,$ $x \prec x_n$ $(x_n \prec x)$ belgi x π yo‘ldan chapda (o‘ngda) joylashganini anglatadi, h_* esa (5) funksional tenglamaning ixtiyoriy translyatsion-invariant yechimi va $h_{x_n}^{(n)}$ ketma-ketlik $\left(h_{x_n}^{(n)}\right)^2 \in \mathbb{Z}_p^* \setminus B(-1, 1)$ shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy ketma-ketlikdir.

8-teorema. $p \geq 3$ bo‘lsin. Γ_+^k yarim Keli daraxtida ixtiyoriy π yo‘lga mos (5) va (7) tenglamalarni qanoatlantiruvchi yagona $h^{\pi} = \{h_x^{\pi}, x \in V\}$ p-adik sonlar to‘plami mavjud. Qolaversa, ushbu p-adik sonlar to‘plamiga mos kelgan p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari $h_* = 1$ bo‘lgandagina chegaralangan.

9-teorema. $p \geq 3$ bo‘lsin. Agar (5) funksional tenglamaning $h_* \notin \{-1, 1\}$ shartni qanoatlantiruvchi translyatsion-invariant yechimi mavjud bo‘lsa, u holda p-adik Izing modeli uchun faza almashish mavjud bo‘ladi.

10-teorema. 8-teoremadagi o‘lchovlar π yo‘lga bog‘liq bo‘lib, Keli daraxtida p-adik Izing modeli uchun sanoqsiz sondagi p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari mavjud.

XULOSA

Dissertatsiya chekli holatli p-adik Potts va Izing modellari uchun translyatsion-invariant, davriy va davriy bo‘lmagan p-adik Gibbs o‘lchovlariga, shuningdek, ularning chegaralanganlik muammolari hamda bu modellar uchun faza almashishlariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Agar $p \equiv 1(\mathrm{mod}\, 8)$ yoki $p \equiv 3(\mathrm{mod}\, 8)$ bo‘lsa, ikkita translyatsion-invariant bo‘lmagan p-adik G_2-davriy kvazi Gibbs o‘lchovlari mavjudligi isbotlangan.

2. Agar $p \equiv 1(\mathrm{mod}\, 8)$ yoki $p \equiv 3(\mathrm{mod}\, 8)$, $p \neq 3$ bo‘lsa, u holda ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli p-adik Potts modeli uchun faza almashish mavjudligi isbotlangan.

3. Uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli barcha translyatsion invariant p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari topilgan. Jumladan, Agar $p \equiv 1(\mathrm{mod}\, 12)$ bo‘lsa, bunday o‘lchovlar soni to‘rtta bo‘lishi va faza almashishi ro‘y berishi isbotlangan.

4. Uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun barcha translyatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlari topilgan. Bu o‘lchovlarni chegaralanganlikka tekshirilgan.

5. Ikkinchi tartibli Keli daraxtida uch holatli Potts modeli uchun funksional tenglamaning topilgan translyatsion-invariant yechimlaridan foydalanib, yuqori tartibli Keli daraxtida ART p-adik kvazi Gibbs o‘lchovlari topilgan, bu o‘lchovlarni mavjudlik shartlari va ularning chegaralanganlikka tekshirilgan.

6. Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun funksional tenglamaning topilgan translyatsion-invariant va $G_k^{(2)}$-davriy yechimlaridan foydalanib, yuqori tartibli Keli daraxtida davriy bo‘lmagan ART, (k_0)-translyatsion-invariant va (k_0)-davriy p-adik umumlashgan Gibbs o‘lchovlarini topilgan. Avvaldan ma’lum bo‘lgan ba’zi konstruksiyalarni umumlashtiradigan konstruksiya qurilgan va konstruksiya yordamida, qurilgan o‘lchovlarni mavjudlik shartlarini aniqlangan va ularning chegaralanganlikka tekshirilgan.

7. Izing modeli uchun sanoqsiz sondagi Gibbs o‘lchovlarni mavjudligini taminlovchi Blexer-G‘anixodjayev konstruksiyasining p-adik muqobili qurilgan va bu konstruksiyadan foydalanib topilgan o‘lchovlarni mavjudlik shartlarini aniqlangan va faza almashishlari mavjud bo‘lishi uchun yangi shart topilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I.ROMANOVSKY

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

TUKHTABAEV AKBARKHUJA MAMAJONOVICH

p-ADIC PERIODIC GIBBS MEASURES FOR SOME CLASSICAL MODELS OF STATISTICAL MECHANICS

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Tashkent – 2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number № B2021.4.PhD/FM556.

Dissertation has been prepared at Namangan state university.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Scientific Council (https://kengash.mathinst.uz) and the "ZiyoNet" information and educational portal (http://www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Rahmatullaev Muzaffar Muxammadjanovich** Doctor of Physical and mathematical Sciences, senior researcher
Official opponents:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** Doctor of Physical and mathematical Sciences, professor
	Botirov Golibjon Isroilovich Doctor of Physical and mathematical Sciences, senior researcher
Leading organization:	**The National University of Uzbekistan**

Defense will take place on " 21 " November 2023 at 16:00 at the meeting of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+998 78) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky (registered for No.170). (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+998 78) 207 91 40).

Abstract of dissertation sent out on " 27 " October 2023 year.
(Mailing report No.2 on " 27" October 2023 year).

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
DSc., Professor

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
DSc., senior researcher

U.U.Jamilov
Chairman of scientific Seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
DSc., senior researcher

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of dissertation. Many scientific and practical researches devoted to the study of thermodynamic properties of physical and biological systems conducted around the world are often leaded to the investigation of Archimedean and non-Archimedean models of statistical mechanics. p-adic Gibbs measures are the main object of the theory of phase transitions for non-Archimedean models of statistical mechanics. The study of Gibbs measures is important in solving problems in various fields of science and technology, such as chemistry, physics, service theory, material science, biology.
Due to the complexity of fully describing the set of all p-adic Gibbs measures corresponding to the non-Archimedean models of statistical mechanics, the problem of constructing a sufficient number of Gibbs measures corresponding to the given model remains relevant.

Nowadays in the world, one of the actual problems is to determine the existence of p-adic Gibbs measures for the Hamiltonian given on lattice systems, in particular, tree-structured countable graphs, and to describe the set of all p-adic Gibbs measures. One of the important problems of the theory of phase transitions in statistical physics is the problem of determining the existence of at least two -adic periodic Gibbs measures in the set of all p-adic Gibbs measures. Therefore, describing the set of all periodic and translational-invariant p-adic Gibbs measures for a given Hamiltonian, checking such measures for boundedness, and determining the existence of a phase transition for p-adic generalized Gibbs measures are purposeful scientific researches.

It is known that in our country, in our country, much attention has been paid to develop important directions of scientific and practical application of fundamental sciences, which is one of the main bases of development. In particular, in recent years, significant results have been achieved in the study of translation-invariant, periodic and some non-periodic Gibbs measures generated by constructive methods for classical models of statistical mechanics in the field of real and p-adic numbers on the Cayley tree. The investigations on the international level in such important areas as the mathematical physics, non-Archimedean analysis, theory of non-Archimedean measures and theory of dynamical systems are considered as the main task of fundamental research[1]. In this way, the development of phase transitions theory for the classical models of statistical mechanics plays a crucial role in the implementation this decree.

The subject and object of research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees and Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan of February 7, 2017, PF-4947 , “On the strategy of action for the

[1] Decree of Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan at the 2017 year 18 May “On measures on the organization of activities of the first created scientific research institutions of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan” № 292

